



NA'MATAK O'SIMLIGINING XUSUSIYATLARI

Ziyyayev Farrux Abdusalim o'g'li

Termiz Davlat Pedagogika Instituti Tabiiy fanlar fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7509208>

Annotatsiya: Na'matak o'simligi dorivor o'simliklar sirasiga kiradi. Uning dorivorlik xususiyatlari bir qanchani tashkil etadi. Bu o'simlikni tabiatni ko'rki desak adashmaymiz, u asosan tog'li hududlarda va hovlilarda ham uchraydi. Shifobaxshlik sifati buyicha yuqori o'rinda turadi. Na'matakni tabobatni ko'plab sohalarida qo'llash mumkin.

Kalit so'zlar: limon kislota, oshlovchi, begger, itburun, fedchenko, flavonoidlar, pectin, likopin, allergik, tromp.

Na'matak haqida malumot:

Na'matak ranodoshlar oilasiga mansub o'simlik bo'lib uning xalq orasida yana bir nomi bo'lib "rano" ham deb ataladi. Bu o'simlikning bo'yi 1.4 metr dan 3 metrgacha bazan 6 va undan ham ortishi mumkin. Poyasi ko'plab epidermis xosilasiga ega, yani tikanli buta hisoblanadi. Na'matak atirgulning yovvoyi vakili hisoblanadi. Poyasi yaltiroq egiluvchan ko'p shoxli buta, barglari murakkab murtakning epikotil qismidan hosil bo'ladi. Bazan oddiy lari ham uchraydi. Barglari toq patsimon 4-5 dan 9 tagacha yaproqchali, poyada ketma-ket joylashgan yani dexotomik. May oyining oxirida boshlab iyul oyigacha yuklaydi. Gullari o'rtacha kattalikda ksantafel pigmentiga ega. Uzunligi 7-10 sm keladi. Gullari oqish, qizil to'q qizil pushti va nim pushti ranglarda bo'ladi. Mevasi qizich soxta meva hisoblanadi. Mevasi uzunchoq, etdor hamda tuxumsimon. Mevasining kattaligi 2-3 sm keladi. Mevasining ichida juda ko'p qattiq tukli urug'lari bor.

Na'matakning O'zbekiston hududida 13 ta turi uchraydi, bulardan ayrimlarini tilga olamiz

Beggir na'matagi

Itburun na'matagi

Fedchenko na'matagi

Qo'qon na'matak.

Na'matakdan hozirgi kunda avitaminoz kasalligida keng foydalaniladi.

Na'matakning dorivorlik xususiyatlari:

Na'matakning mevasi tarkibida insonlar salomatligi uchun zarur bo'lgan ko'plab darmon-dorilar bor bo'lib, bularga limon kislota, oshlovchi va boshqa shunga yaqin moddalar uchraydi. Mevasi tarkibida C vitamini ko'p uchraydi (18-20%) va quyidagilar ham uchraydi. Bular K, B guruh vitaminlari va flavonoidlar, qand, pectin, likopin tuzlardan kaliy, temir, marganis, pospor, magniy va kalsiy tuzlari



uchraydi.Bundan tashqari yuqorida keltirilgan organik kislotalar ham uchraydi.Avitaminoz yani vitamin yetishmovchiligida mevasi ko'pincha qo'llaniladi.Tarkibidagi C vitamini arterial bosimni tushirib,qonni suyiltradi.Insonlarning immunitetini oshadi,organizmdan mikroblarni chiqarib yuborishga yordam beradi.Na'matakning mevasi ichidagi urug'i ichida E vitamini va moylar ham bo'ladi.Uning urug'idan olinadigan moy va ekstraktlar,kuyganni,tropic yaralarni,terining yuza qismidagi yarli kolit kasalliklarni davolash va oldini olishda ishlatiladi.Na'matakning mevasidan farmatsevtikada ko'plab dorilar tayyorlanmoqda.Xolosos periparati jigar kasalligini davolashda ishlatiladi.Insonlar tabobatda qaynatma va damlamalaridan oshqozon ichak kasalliklarida ,bachadondan qon ketishini to'xtatishda ,isitma tushirishda ,o't va siydik haydovchi sifatida foydalanadi. Na'matak tarkibidagi C vitamini ,qoraqatga nisbatan 10 marta ,limonga nisbatan 50 marta ko'p.

Na'matakni shamollash hamda viruslarni oldini olishda ham ishlatlsa bo'ladi.

Yurak qon tomir tizimiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

Kamqonlikda ham yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

Vazin tashlashga ham yordam beradi.

Zararli toksiblarni chiqarib tashlashda ham foydali hisoblanadi.

Damlama tayyorlash:

Na'matak foydali xususiyatlarini yuqotmasligi uchun uni qaynatishdan ko'ra damlash yani termosga solish kerak .2letr suvga 8-10 osh qoshiq quritilgan mevasini solamiz.Damlab choy yoki damlama kamida 5-7daqqa turishi kerak bo'ladi.So'ngra dokadan o'tkazib shirinlik yoki asal bilan istimol qilish kerak bo'ladi.

Tarkibi:C va E vitaminlari ,limon kislota ,oshlovchilar,qand, flavonoidlar,efir moylari, ekstrakti, pictin, likopin va birqancha tuzlar.

Xulosa:Na'matakning foydali tomoni bilan birga salbiy tomonlari ham bor bo'lishi mumkin.Shu sababli undan tug'ri foydalanish zarur bo'ladi.Damlamasi bilan vitaminlanishdan oldin uning salbiy va ijobiy tomonlari bilan tanishib chiqish kerak bo'ladi.Uning gullari dorivorlik xususiyatiga ega emas. Uni qo'llashdan oldin mavjud bo'lgan yo'riqnomalar bilan tanishish zarur.

Tavsiya etilmaydigan holatlar.

Oshqozonning kislotaligi oshganda(sekretsianing oshishi),Oshqozonning shilliq qavati yallig'langanda, Oshqozonosti bezi kasalligi, Dermatologik holatlarda(allergik),Tromplar tomirlarda shakllana boshlaganda, Yurak mushaklarini yallig'lanishida.





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turli xildagi maqolalar
2. O'simliklar aniqlagichi S.Xoliqov
3. Botanika S.Mustafayev
4. Javodbek Mirzaali o'g'li, A. (2022). VITAMINLAR. VITAMIN HAQIDA TUSHUNCHA. VITAMINLARNING HOZIRGI KUNDA INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATI. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 1(11), 13–16. Retrieved from <http://interonconf.org/index.php/idre/article/view/264>
5. Asfandiyorov Javodbek Mirzaali o'g'li, Mardonov Mirzabek Begzod o'g'li, Sultonmirzayev Xikmatillo Eminjon o'g'li, Saydaxmatov Akobir Ravshan o'g'li. (2022). LIVER ANATOMY, HISTOLOGY AND PHYSIOLOGY. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 1(11), 8-11.
6. Asfandiyorov Javodbek Mirzaali o'g'li, Xushmurodov Doniyor Turg'un o'g'li, Nazarov Asadjon Fozil o'g'li. (2022). Liver Structure and Functions, Hepatocytes Information About. American Journal of Economics and Business Management. 5(11), 215-216.
7. Mirzaali o'g'li, A. J., Shodiqul o'g'li, X. I., Fozil o'g'li, N. A., & Davronbek Ulug'bek o'g, T. (2022). TERMINAL CASES LUNG AND HEART RESUSCITATION TRANSFER PRINCIPLES. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(10), 729-731.
8. Mirzaali o'g'li, A. J., Shodiqul o'g'li, X. I., Fozil o'g'li, N. A., Eminjon o'g'li, S. X., & Aliqul o'g'li, N. B. (2022). ANESTHESIA AND ITS GENERAL CHARACTERISTICS. Gospodarka i Innowacje., 28, 191-192.
9. Mirzaali o'g'li, A. J., Shodiqul o'g'li, X. I., Eminjon o'g'li, S. X., Aliqul o'g'li, N. B., & Begzod o'g'li, M. M. (2022). Importance of medical prevention in medicine. Texas Journal of Medical Science, 13, 175-176.
10. Asfandiyorov, J., Fozilov, N., Tojiddinov, D., & Sultonmirzayev, X. (2022). BIOLOGIK MEMBRANALAR HAQIDA TUSHUNCHA. BIOLOGIK MEMBRANALARNING VAZIFASI HAMDA AHAMIYATI.
11. Asfandiyorov , J., Fozilov , N. ., Sunnatullayeva , M. ., Alpomishev , J. ., & Xolmurodova , H. . (2022). CARDIOVASCULAR DISEASES. HYPERTENSION AND HYPERTENIC CRISIS. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 2(11), 209–210. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/4905>
12. Ahmedova Saodat Tashboltayevna, Asfandiyorov Javodbek Mirzaali o'g'li, Odilov Ramziddin Dilshod o'g'li, Xushvaqtova Osiyo Asadulla qizi, & Rashidova





Farangiz Musulmon qizi. (2022). LEISHMANIOSIS DISEASE, ITS SYMPTOMS, PRIMARY CONSEQUENCES AND DISTRIBUTION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 836–838. Retrieved from <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/3147>

